ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

2026 Vol. 1

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 1

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: Nozliya Normurodova

Mas’ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Nurboy Jabborov, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzoq Jo‘raqulov, Zulxumor Xolmanova, Ziyoda Teshaboyeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulxumor Ortiqova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Tahrir hay’ati

Nazef Shahrani (AQSH)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)
Ahmadali Asqarov (O‘zbekiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)
Akmal Nur (O‘zbekiston)
Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Muzaffar Komilov (O‘zbekiston)
Tanju Seyhan (Turkiya)
Akmal Saidov (O‘zbekiston)
Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san’at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoev, Samikhon Ashirboev, Nurboy Jabborov, Farhod Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Dilorom Ashurova, Uzak Jurakulov, Zulkhumor Khalmanova, Ziyoda Teshaboeva, Dilnavoz Yusupova, Iroda Azimova, Sulton Normamatov, Zulkhumor Ortikova, Botir Elov, Komil Kalonov, Manzura Abjalova, Rasul Atamurodov

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)
Elisabetta Ragagnin (Italy)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)
Akmal Nur (Uzbekistan)
Almaz Ülvi (Azerbaijan)
Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Tanju Seyhan (Turkey)
Akmal Saidov (Uzbekistan)
Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Nicholas Kontovas (Great Britain)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navoʻi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Munavvara Qurbonova
Bolalar nutqida emotsional deyksisning voqelanishi 6

Nurbek Ahmadjonov
O‘zbek va nemis rahbar-muloqot diskursida nutq odobi va uning lingvistik aspektlari 24

Aynel Mashadiyeva
Turkiy tillar va dialektlardagi sifatdoshlarning qiyosiy-tarixiy tadqiqi 41

Firuz Abdusalomov
Zamonaviy media diskursida harbiy leksikaning semantik transformatsiyasi 58

Elnare ALİYEVA
Türk Dillerinde İsimlerde Çoğulluğun Bazı Özellikleri 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

Almaz Ülvi BİNNƏTOVA
Ensiklopedik Təfəkkürə Malik Mənəviyyat Memarı (İsrafil Məmmədovun “Uç, göyərçinim, uç” əsəri haqqında ədəbi qeydlər).....83

Mohida Qodirova
Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi 95

TARJIMASHUNOSLIK

Yorkinoy Nasirdinova
“La Fermeté des faibles” – So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” pandnoma asarining ilk fransuzcha tarjimasi.....107

Ilhom Xolmuminov
Badiiy hikoya tarjimasining kognitiv mexanizmlari va paradigmatik modellashtirish 119

SOTSIOLOGIYA

Komil Kalanov
Sun’iy intellekt texnologiyalarining sotsiologik diskurs tahlili 133

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA

Adhamjon Ashirov
Samarqand bozorlari tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari 156

CONTENT

LINGUISTICS

Munavvara Kurbanova
The realization of emotional deixis in children's speech 6

Nurbek Ahmadjonov
Speech Etiquette and its Linguistic Expression in Uzbek and German Leadership-Communication Discourse 24

Aynel Mashadieva
Participles in Focus: a Comparative-Historical Study in Turkic Languages and Dialects 41

Firuz Abdusalomov
Semantic Transformation of Military Lexicon in Contemporary Media Discourse 58

Elnare ALİEVA
Particular Features of Noun Pluralization in Turkic Languages 71

LITERATURE

Almaz Ulvi BİNNATOVA
Encyclopedic Thinking and the Artistic Representatıon of Spiritual Memory (Literary notes on Israfil Mammadov's work "Fly, my dove, fly").....83

Mohida Qodirova
From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels.....95

TRANSLATION STUDIES

Yorkinoy Nasirdinova
"La Fermeté des faibles": The First French Translation of Sufi Olloyor's Didactic Work *Sabot ul-ojizin*.....107

Ilhom Kholmuminov
Cognitive Mechanisms and Paradigmatic Modeling of Literary Translation.....119

SOCIOLOGY

Komil Kalanov
Sociological Discourse Analysis of Artificial Intelligence Technologies .133

ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

Adhamjon Ashirov
The History and Distinctive Features of Samarkand Markets 156

ISSN 2181-922X 95—106

Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi

Mohida Qodirova[1]

Abstrakt

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari asosida ingliz adabiyotida Flora Anni Stil hamda Aleks Rutserfordlar tomonidan yaratilgan ikki tarixiy romanda Esondavlat begim obrazi ham badiiy talqin etilgan. Mazkur badiiy talqinlarni tahlil qilish davomida “Boburnoma”, “Jahongashta qirol” (“King-errant”) hamda “Shimoldan kelgan fotihlar” (“Raiders from North”) romanlaridagi Esondavlat begim shaxsi yoritilgan o‘rinlar o‘rganildi. Bunda “Boburnoma” gipotekst – asos matn vazifasini, “Jahongashta qirol” va “Shimoldan kelgan fotihlar” romanlari gipertekst – yangi, transformatsiyaga uchragan matn vazifasini bajargan. Tadqiqot mobaynida yuqorida nomlari tilga olingan ikki ingliz yozuvchilari o‘z asarlarida Esondavlat begim obraziga katta o‘rin berib, uning davlat boshqaruvi, siyosiy masalalardagi rolini ochib berishga harakat qilganliklari, asar davomida tarixiy faktlarga asoslangan holda Esondavlat begim shaxsi va tashqi qiyofasini o‘ziga xos badiiy mahorat bilan tasvirlaganliklar yoritildi. Ushbu tadqiqot “Boburnoma” hamda u asosida ingliz adabiyotida yaratilgan asarlar, ulardagi transformatsiya hodisasini o‘rganishga doir tadqiqotlar uchun manba vazifasini bajaradi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, ingliz tarixiy romanlari, Esondavlat begim, transformatsiya, memuar.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, madaniyati, siyosiy hamda ijtimoiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi asar bo‘libgina qolmay, Bobur va uning oilasi, hayoti, saroy xonimlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy mavqeyi to‘g‘risida ham ma’lumot beruvchi memuar asardir.

Memuar asar haqida D.Quronov quyidagicha ta’rif beradi: “…

[1] *Mohida Qodirova* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-pochta: nazarovamohida@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-8172-9777
Iqtibos uchun: Qodirova, M. 2026. “Tarixiy manbadan badiiy talqinga: Esondavlat begim obrazining ingliz tarixiy romanlaridagi interpretatsiyasi”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1: 95 – 106.

xotiranavis, umuman, voqeani emas, uning o‘zi ko‘rgan tomonlari va undan bevosita olgan taassurotlari haqida yozadi. Shunday ekan, memuar subyektivlikdan xoli emas, demak, faktik aniqligi jihatidan hujjat sanala olmaydi. Biroq bu subyektivlik muallifning jonli ishtiroki, taassurotlarning tabiiy va jonliligi, shuningdek, hujjatlarda doim ham aks etavermaydigan ko‘plab tafsilotlarni qamrashi hisobiga yuvilib ketadi, shu jihatlari bilan memuar asar muayyan voqea (davr) haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manba bo‘lib qoladi” [Quronov 2013, 169].

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti davomida ko‘rgan-kechirgan voqea-hodisalarini qamrab olishi bilan birgalikda ko‘plab tarixiy shaxslar, ayniqsa, saroy xonimlari haqida ham qiziqarli ma’lumotlarni taqdim etadi. Jumladan, Umarshayx mirzoning farzandlari haqida ma’lumot berar ekan, o‘gay singlisi Ruqiyasulton begim ta’rifida quyidagi jumlalarni keltiradi: “Yana bir qizi Ruqiyasulton begimning onasi Maxdumsulton begim edi. Uni qorako‘z begim der edilar. … Shayboniyxon Andijon va Axsini olganda Ruqiyasulton begim Jonibek sultonga tushgan edi. Bir-ikki o‘g‘illi bo‘ldi, biroq bolalari turmadi. Yaqinda xabar keldiki, Tangri rahmatiga boribdi” [Bobur 2023, 39].

Shu bilan birga, asar davomida o‘sha davrda Movarounnahr va Xuroson hududida istiqomat qilgan ko‘plab tarixiy shaxslar haqida qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin. Ushbu tadqiqot “Boburnoma” asosida yaratilgan ingliz romanlaridagi Esondavlat begim obrazini atroflicha tahlil qilish va qiyoslashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

“Boburnoma”dagi ma’lumotlardan ma’lum bo‘ladiki, Bobur mirzo otasining bevaqt vafoti sababli 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tiradi. Unda davlatni boshqarish uchun tarjiba va bilim yetishmas edi. Biroq Bobur podshohning ilk hukmronlik yillarida yonida yelkadosh bo‘lib, turli ziddiyatli va qiyin ishlardan uni omon saqlab qolishda sadoqatli beklardan tashqari Boburning onasi, opasi, ayniqsa, buvisi Esondavlat begim beqiyos darajada xizmat qiladilar. Zahiriddin Muhammad Bobur taxtga chiqqanida, mamlakatning ikki tomonidan tog‘asi va amakisi bostirib kelar va Andijon bunday bosqinga tayyor emas edi. Lekin, avvalo, dushmanlarga bostirib kelgan turli ofatlar, bundan tashqari, Esondavlat begim va sodiq beklarning oqilona tadbirlari tufayli Bobur o‘sha ziddiyatli vaziyatda o‘z hukmronligini saqlab qola oldi. O‘rta asrlarda nafaqat Bobur podshoh saroyida, balki temuriylar saroyida ham saroy xonimlarining mavqeyi yuqori darajada bo‘lgan hamda ular haram

ichki hayotini nazorat qilish bilan birgalikda davlat ishlarida faol ishtirok etganlar. Jumladan, Amir Temur saroyida Saroymulk xonim, Shohruh mirzo saroyida Gavharshod begim, Husayn Boyqaro saroyida Xadicha begimlar hukmdorlarga o‘z maslahatlari orqali qisman bo‘lsa-da, ta’sir o‘tkaza olganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur saroyi ham bundan mustasno emas edi.

Boburning onasi Qutlug‘nigor xonim, opasi Xonzoda begim va ayniqsa, Esondavlat begim Boburning ilk hukmronlik davrlaridan to vafotlarigacha eng sodiq va aqlli maslahatchilari vazifasini bajarishgan. Bu o‘rinda mamlakat tinchligi va taxt mustahkamligida Esondavlat begimning roli beqiyosdir. U o‘zining oqilona qarorlari va chuqur bilimi yordamida Boburning buyuk sarkarda va hukmdor bo‘lib yetishishiga hissa qo‘shgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida buvisi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Xoja Qozi va Qosim qavchin, Alido‘st tag‘oyi va Uzun Hasan hamda yana ba’zi xayrixohlar mening ulug‘ onam Esondavlat begimning qoshiga yig‘ilishib, Hasan Ya’qubni beklikdan tushirib, fitnasiga barham berishga qaror qildilar. Xotinlar orasida fikrlash va tadbirda ulug‘ onam Esondavlat begimga yetadigani kam edi. Ko‘p oqila va tadbirli edi. Muhim ishlar ko‘proq ularning kengashi bilan bo‘lardi” [Bobur 2023, 55].

Ushbu satrlardan Bobur mirzo atrofidagi ayollarning saroyda baland obro‘ va mavqega ega bo‘lganliklari, ayniqsa, Esondavlat begim davlat boshqaruvida faol ishtirok etgani anglashiladi. Esondavlat begim Bobur podshoh saroyida katta mavqega ega davlat arbobi bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida buvisi haqida atroflicha to‘xtalib, uning oqil-u dono ekanligi, singlisi Yodgorsulton begimni o‘z tarbiyasiga olgani, uning barcha sargardonliklarida birga bo‘lib, o‘zining oqilona maslahatlari bilan ko‘mak bergani hamda onasining vafotidan taxminan 40 kun o‘tib vafot etganini ta’kidlaydi. Esondavlat begim Bobur mirzo hayotida muhim rol o‘ynagan besh ayolning biri edi. Biroq uning xarakteri, tashqi ko‘rinishi yoki hayotiy prinsiplari to‘lig‘icha ochib berilmagan. Biz tadqiqot obyektiga olgan ingliz yozuvchilari Flora Anni Stil (“Jahongashta qirol”) hamda Aleks Rutserfordlar (“Shimoldan kelgan fotihlar”) qalamiga mansub ikki tarixiy-badiiy romanda Esondavlat begim ruhiyati, qarashlari va Bobur mirzo hayotida tutgan o‘rni keng qamrovda tasvirlangan. Mazkur tadqiqot orqali ushbu tarixiy shaxsning tarixiy memuar asardan ingliz badiiy adabiyotiga transformatsiyasini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Flora Anni Stil va Aleks Rutserfordlar Angliyada yashab ijod etgan ikki bobursevar yozuvchi-olimalar bo‘lib, ularning ijodi Bobur shaxsiga bo‘lgan cheksiz hurmat va muhabbatlari tufayli nafaqat ingliz, balki o‘zbek kitobxoni uchun ham qiziqarlidir.

“Jahongashta qirol” romani Flora Anni Stil tomonidan 1912-yilda yakunlangan bo‘lib, muallif uni, avvalo, “Boburnoma” asari, ko‘plab tarixiy kitoblar, shuningdek, Hindistonda o‘tgan 22 yil umri davomida yig‘gan ma’lumotlari, izlanishlari asosida yaratgan. Asarda “Boburnoma”da nomlari keltirilgan ko‘plab tarixiy shaxslar, joylar va voqealar o‘z aksini topgan bo‘lib, bulardan Esondavlat begim haqida tasvirlar biz uchun muhim qismlar hisoblanadi.

Ikkinchi kitob Aleks Rutserford qalamiga mansub bo‘lib, 2009 – 2015-yillar oralig‘ida yakunlangan “Mo‘g‘ullar imperiyasi” romanlar turkumining birinchi qismini tashkil etadi. Muallif bu asarni boburiylar tarixiga bo‘lgan qiziqishi hamda hurmati sababli Hindistonga qilgan sayohatlari, turli tarixiy asarlar va albatta, “Boburnoma” asariga asoslangan holda yaratadi. Asar jangnoma ruhida yozilgan bo‘lib, Bobur mirzo atrofida sodir bo‘lgan voqealar va tarixiy shaxslar toraytirilgan, yangi obrazlar qo‘shilgan hamda tarixiy haqiqatga yangicha yondashuv ifodalangan. Ushbu asarda ham Esondavlat begim obrazi ishtirok etgan va uning avvalgi asarlarda ta’kidlanmagan qirralari ochib berilgan.

Esondavlat begimni tasvirlashda adiblar uslubi

Tadqiqot davomida Esondavlat begim shaxsi quyidagi uchta mezon asosida tahlil qilinadi:

1. Ma’naviy tarbiyachi va siyosatchi sifatidagi o’rni.
2. Boburning “yurt olish” missiyasiga munosabati.
3. Tashqi qiyofasi va xarakteridagi chizgilar.

Esondavlat begim ma’naviy tarbiyachi va maslahatchi sifatida har ikkala asarda ham muhim vazifa bajaradi. “Jahongashta qirol” romanida ushbu obraz Chingizxon aqidalarini hurmat qiladigan, bid’at va xurofotga berilmaydigan, shuningdek, qattiqqo‘llik tarafdori sifatida maydonga chiqadi. U Boburning qalbini hammadan ham yaxshi tushuna olar va unga mos da’volarni bera olardi. Misol uchun, Umarshayx mirzo vafotining ilk kunlarida Shayx Jamol haqidagi o‘z hayotida sodir bo‘lgan voqeani so‘zlab berish orqali Boburni jasur va dadil bo‘lishga chaqiradi. Shu bilan birga, qat’iyatli bo‘lish orqali ayollar ham turli qiyinchiliklarni va yovuz kuchlarni yenga olishlarini uqtiradi. Ushbu syujet tarixiy asosga ega bo‘lib, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”

asarida keltirilgan. “Tarixi Rashidiy” asarining Yunusxon va Shayx Jamol muxolifatiga bag‘ishlangan 46-bobida Esondavlat begimning jasorati haqida tarixiy ma’lumotlar keltirilgan. “Jahongashta qirol” romanida keltirilgan Yunusxonning Shayx Jamol qo‘liga tushishi, Esondavlat begimning Xoja Kalon ismli Shayx Jamolning mo‘tabar kishisiga berib yuborilishi va to‘y kechasi Esondavlat begim Xoja Kalonni o‘ldirgani haqidagi ma’lumotlar tarixiy haqiqat bo‘lib, “kaltak bilan urib o‘ldirish” sahnasi “pichoq sanchish” sahnasiga, “o‘likni ko‘chaga chiqarib tashlash” “o‘likni derazadan jarga uloqtirib yuborish”ga almashgan [Haydar 152 – 154]. Stil ushbu asarning 1895-yilda E.Denison Ross tomonidan qilingan inglizcha tarjimasidan foydalangan bo‘lishi mumkin.

Esondavlat begim shaxsini ochib beruvchi yana bir detall uning bashoratgo‘ylik qobiliyatiga egaligi bilan belgilanadi. Ya’ni uning kuyovlari bo‘lgan Ahmad mirzo va Mahmud mirzolarning Farg‘ona mulkiga ko‘z olaytirishlarini oldindan bilganligini, bu ishlari uchun ular ayovsiz jazolanishlari muqarrarligini aytib o‘tadi [Stil 1912, 22]. Biroq muallif Esondavlat begimning bashoratgo‘ylik sifatini ta’kidlash mobaynida keltirgan bu detalida tarixiy chalkashlik mavjud bo‘lib [Qodirova 2026, 407], buni Stil asarning keyingi qismlarida to‘g‘rilaydi.

Aleks Rutserford esa ushbu obraz tasviriga yangicha yondashadi va uni amaliy jihatdan harakatga keltiradi. Esondavlat begim asarning dastlabki qismidan boshlab siyosiy va harbiy strateg sifatida namoyon bo‘ladi va muallif undagi bilim, oqillik va tezkorlik bilan qaror qabul qilish qobiliyatiga urg‘u beradi. Esondavlat begimdagi favqulodda oilalar va qabilalar o‘rtasidagi rishtalar, adovatlar, ittifoqchilarning ishonchlilik darajasi haqidagi bilimi vositasida Umarshayx mirzo vafotidan keyin Boburga qarshi saroyda boshlangan fitnaga barham beradi, uni to‘laqonli hukmdor sifatida namoyon bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Asarda keltirilishicha, Bobur buvisiga dushman emas, do‘st bo‘lgani uchun minnatdor bo‘ladi [Rutherford 2009, 21].

Asar davomida Esondavlat begim Bobur mirzoni doimo kurashlarga, har bir ishdan xulosa chiqarib, olg‘a intilishga chorlovchi asar qahramoni sifatida gavdalangan. Jumladan, Andijon taxtidan ayrilgan Bobur ikki yil davomida Farg‘ona viloyatida Ahmad Tambal hududlariga hujum qilib, qaroqchilik qiladi va uni oilasini qaytarib berishga majburlaydi. Ikki yillik ayriliqdan so‘ng ko‘rishishganida Qutlug‘nigor xonim uning yovvoyi qaroqchilardek ko‘rinishini yoqlamagan bir holatda, Esondavlat begim Bobur

harakatlarini, yurish-turishini tanqid qilmaydi, aksincha, ushbu yillar unga nima o‘rgatganini va kelajakda nimalarni rejalashtirayotganini so‘raydi. Voqea tasvirida Esondavlat begim xaritani jiddiy ko‘zdan kechirayotgan, undagi Boburga tegishli hududlarni bildiruvchi nuqtalarga mamnuniyat bilan tikilgan holda tasvirlangan [Rutherford 2009, 109]. Asarning keyingi qismlarida ham buvisi Boburning sarkarda sifatida olib borgan ishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va boshqalarni ham shunga undaydi. Shuning-dek, Esondavlat begim ko‘p yillik tajribasi va bilimi sababli har daqiqada saltanatga xavf soluvchi kuchlardan ogoh bo‘lish kerakligini chuqur anglaydi, Boburni ham g‘aflat uyqusiga berilmay, mamlakat chegaralarini mustahkamlashga chorlaydi, hattoki kerak bo‘lsa, podshoh nabirasiga tarsaki tushirishga ham jur’at etadi [Rutherford 2009, 131].

Boburning yangi yoki avval o‘ziga qarashli bo‘lgan hududlarni egallash motivida ham Esondavlat begimning roli turli detallar bilan tasvirlangan. Jumladan, Samarqand taxtiga intilish motivi har ikkala romanda ham asosiy o‘zakni saqlab qolgan holda yangicha talqinlarga uchragan. “Jahongashta qirol” romanida Esondavlat begim Mahmud mirzoning vafotidan so‘ng Boburning Samarqand taxtiga Mo‘g‘uliston qonunlariga ko‘ra haqiqiy voris ekanini ta’kidlaydi, lekin shoshilmaslikka, qulay fursatni kutishga qaror qiladi. Shu sababli Boburni Samarqand haqidagi tashvishlardan chalg‘ishi va harbiy ilmlarni yanada puxtaroq o‘rganishi uchun uzoq qarindoshi Husayn Boyqaro bilan harbiy yurishga jo‘natadi. Biroq qulay fursat tug‘ilishi bilanoq nabirasini chaqirtirib, Samarqand sari jo‘natadi. Bu syujet to‘qima bo‘lib, muallif Alisher Navoiy, Shohg‘arib mirzo, Mohim begim kabi obrazlarni asarga kiritishda foydalangan.

“Shimoldan kelgan fotihlar”da Samarqandga qilingan ilk yurishda Esondavlat begimning o‘rni sezilmaydi, go‘yo Bobur amakisi bergan uzuk vositasida Samarqand taxtiga da’vo qiladi va qisqa muddatda yurish boshlaydi. Samarqandni ilk bor egallaganida esa o‘z muvaffaqiyatini buvisiga ko‘rsatib, buvisi orzu qilgan inson sifatida shakllanayotganini bildirmoqchi bo‘ladi. Yoki Andijondan ilk marta ayrilganida, Bobur tog‘asi Toshkent xoni Sulton Mahmudxondan ko‘mak olib, Andijonni qayta egallashga harakat qiladi. Xuddi shu epizod “Jahongashta qirol”da Esondavlat begimning kutishdan charchab, Mo‘g‘ulistonga ko‘mak to‘plash uchun ketishi tarzida o‘zgargan:

“Isan-daulet wearied of waiting at last, and set off herself to

Moghulistan to levy troops to aid her grandson in the name of her old dead husband" [Stil 1912, 82].

Biroq mo'g'ullar va ularning bebosh hamda talonchilik odatlari masalasida Bobur buvisi bilan kelisha olmaydi:

"Though on that point she and Babar had many words. He reviling her Moghul horde as the cause of his failure; she asserting it to be his cramping conditions which had prevented the success of the old methods of warfare that had served his fathers well enough" ("Garchi bu borada u va Bobur ko'p gaplashishdi. U (Bobur) uning mo'g'ul qo'shinini muvaffaqiyatsizligining asosiy sababchisi sifatida haqorat qildi, u (Esondavlat begim) esa uning otalariga yaxshi xizmat qilgan urush metodlarining ish berishiga to'sqinlik qilgan narsa Boburning cheklovchi shart-sharoitlari ekanligini ta'kidladi" (Tarjima muallifniki)) [Stil 1912, 100].

Ushbu epizod Aleks Rutserfordda o'zgarishga uchragan bo'lib, Bobur mo'g'ullar emas, qaynotasi yordamida ota yurtini qaytarib olishga harakat qiladi. Asar syujetiga ko'ra, Esondavlat begim va Qutlug'nigor xonim asirliklari vaqtida Boburni uylantirish va u orqali kuchli ittifoqchilarga ega bo'lish rejasini tuzadilar. Buning uchun minglig' qabilasining sardori Ibrohim Soruning qizini kelinlikka tanlaydilar. Kelishuvga ko'ra, to'ydan keyin Ibrohim Soru besh ming kishilik kamonchilar[1] qo'shinini Boburga yordam sifatida jo'natishi kerak edi. Bu o'rinda ham Esondavlat begim kuchli strateg sifatida namoyon bo'lgan.

"Boburnoma"da Esondavlat begimning tashqi ko'rinishi va shaxsiyatini ifodalovchi ma'lumotlar mavjud emas, biroq har ikki muallif ham uning shaxsiyati va tashqi ko'rinishini ifodalovchi o'ziga xos chizgilarni berib o'tishgan. Jumladan, "Jahongashta qirol" hamda "Shimoldan kelgan fotihlar" romanlarida Esondavlat begimga nisbatan ishlatilgan ayrim sifatlarni tahlil qilamiz.

Tashqi ko'rinishiga berilgan sifatlar:

a) *stern-featured* – qattiqqo'l qiyofali: Umarshayx mirzo dafn marosimi kuni tasvirida keltirilgan bo'lib, uning oilaboshi sifatidagi qattiqqo'l va matonatli ekanligini ifodalaydi;

b) *fine old face* – nurli keksa yuzli: garchi yuzini ajin bosgan bo'lsa-da, unda o'zgacha ulug'vorlik aks etgan;

c) *thin lips* – yupqa labli: asosan, nimanidir oldindan bilganida yoki o'ylaganida labini qimtib olish odati bor edi;

d) *wrinkled and undesirable – ajin bosgan va ko'rimsiz:*

[1] Asarda "crossbowmen" so'zidan foydalanilgan. Crossbow – kamonning boshqacha turi, arbalet, asosan, yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi.

Shayboniyxon qamalida Samarqandda qolishga qaror qiladi va keksayib, ko‘rimsiz bo‘lib qolgani uchun dushman unga zarar bermasligi, hattoki Shayboniyxonga maslahat ham berishi mumkinligi ta’kidlanadi;

e) *grip firm as steel, soft as a caress* – po‘latdek mahkam, erkalagandek yumshoq: Esondavlat begimning barmoqlari keksayib qolganiga qaramay, Xonzoda begimning qo‘llarini tutganida qat’iyatni ham, mehrni ham his qildiradi.

Shaxsiyatiga oid chizgilar:

a) *stern old disciplinarian* – qattiqqo‘l intizom tarafdori: u tartibni va hislarni jilovlashni eng muhim deb hisoblaydi;

b) *soft hearted* – ko‘ngli bo‘sh: oilasiga, ayniqsa, nabiralariga nisbatan juda ham mehribon buvi;

c) *sagacious/wise* – oqila: vaziyatni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatiga ega;

d) *clear-sighted* – ziyrak: uzoqni ko‘ra oladigan, voqealar rivojini oldindan sezadigan siyosatchi;

e) *desert-born* – cho‘l farzandi: u doimo Chingizxonning avlodi ekanidan faxrlanadi, uning uchun erkinlik muhim bo‘lib, hatto nabiralarini temuriylar saroyiga oid odob chegaralarini buzganlarida himoya qiladi. Shu bilan birga ulug‘ ajdodlari va o‘z hayotida sodir bo‘lgan voqealarni hikoya qilish orqali Boburga qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri maslahat hamda yupanch bera oladi (Shayx Jamol va Borte hikoyasi);

f) *prophetic* – bashoratgo‘y: Boburga kimlar dushmanlik qilishini va ularning, albatta, jazolanishlarini bashorat qiladi;

g) *shrewd* – ayyor: siyosiy o‘yinlarning mohir boshqaruvchisi sifatida Boburning siyosiy taktikalariga sezilarli ta’sir o‘tkazuvchi maslahatchi;

h) *never minced her words* – dangalchi: har doim haqiqatni Boburning yuziga ayta olgan.

Yuqorida keltirilgan sifatlardan xulosa qilish mumkinki, Esondavlat begim obrazi ushbu asarlarda qalbida nabiralariga nisbatan qancha mehr bo‘lsa, ularning dushmanlariga nisbatan shunchalik nafrati bo‘lgan buvi, qat’iyatli va intizomni sevadigan, shu bilan birga, siyosiy hiylalarga boy siyosatchi, umuman olganda, Boburning ma’naviy tarbiyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan sifatlar har ikkala asar uchun ham umumiy bo‘lib, deyarli o‘xshash so‘zlar bilan ifodalangan. Ushbu ta’riflar yordamida Esondavlat begim shaxsiyatini yanada aniqroq tushunish, uning o‘sha davrdagi siyosiy va ma’naviy o‘rnini yaqqol anglash imkoniyatiga

ega bo‘lamiz.

Mualliflar Esondavlat begimning Samarqand qamalidagi ishtirokiga ham yangicha ruh berganlar. Jumladan, “Jahongashta qirol” romanida Shayboniyxon qamalidan ukasini qutqarish uchun Xonzoda begim yashirin tarzda Shayboniyxonga elchi jo‘natadi va unga turmushga chiqishi evaziga ukasini eson-omon qal’adan chiqarib yuborishini so‘raydi. Shu vaziyatda nabirasini yolg‘iz dushman qo‘liga qoldirib ketishni xohlamagan Esondavlat begim qariganligi, Shayboniyxon unga zarar yetkazmasligini ro‘kach qilib Samarqandda qoladi [Stil 1928, 107]. Ushbu epizod “Boburnoma”-dagi voqealar bilan mos keladi, biroq unda bu kabi detallar keltirilmagan. “Shimoldan kelgan fotihlar” romanida esa bu epizod o‘zgargan va endi Esondavlat begimning vazifasi Xonzoda begimni emas, Boburni himoya qilish bo‘ladi. Ya’ni Samarqanddan Bobur bilan birgalikda chiqadi, sarson-sargardon yurgan vaqtlarida oqilona maslahatlari bilan dalda bo‘ladi. Bir kuni tunda opasini Shayboniyxonga berib, qochib kelishga majbur bo‘lgani uchun ko‘ngli cho‘kib, yig‘layotgan Boburni ko‘rib, unga Chingizxon va uning ayoli Bo‘rte haqidagi hikoyani aytib beradi. Bu orqali uni kuchli bo‘lishga, umidsizlikka berilib, o‘zini ayblamaslikka chaqiradi [Rutherford 2009, 168].

Asarlardagi Esondavlat begim vafoti haqidagi o'rni ham alohida e’tiborga molik. “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, Esondavlat begim umrining oxirgi damlarini Toshkentda o‘tkazgani, qizi Qutlug‘nigor xonimdan taxminan 40 kundan so‘ng vafot etganini bilishimiz mumkin. Flora Anni Stilning asarida ushbu ma’lumot o‘zgarishga uchramagan holda keladi. Biroq Aleks Rutserfordda Kobul egallanganidan keyin Qutlug‘nigor xonim emas, balki Esondavlat begim vafot etadi. Qutlug‘nigor xonim kasalligida Esondavlat begim unga g‘amxo‘rlik qiladi va parvarishlaydi. Boburning yana uylanish haqidagi va’dasidan dalda olgan Qutlug‘nigor xonim tuzalib ketadi. Uning o‘rniga esa biroz muddatdan so‘ng onasi Esondavlat begim vafot etadi. Muallif ushbu epizodda tarixiy ma’lumotlarga biroz o‘zgartirish kiritish orqali asarga yangicha ruh bag‘ishlaydi, Bobur va Esondavlat begim o‘rtasidagi rishtani ochiqroq tushunish imkonini beradi. Esondavlat begim uyqusida, hatto vasiyat qilishga ham ulgurmay, osoyishta o‘lim topadi. Qutlug‘nigor xonim esa onasi uchun aza ochadi. Buvisining o‘limi Boburga qattiq ta’sir qiladi, chunki, birinchidan, Esondavlat begim biror so‘z aytmay yoki so‘nggi topshiriqni bermasdan vafot etadi. Ikkinchidan, Bobur maslahatchisidan ayriladi. Biroq uning

jasurlikka chorlovchi so‘zlarini eslarkan, buvisi oldida qanchalar qarzdor va majburiyatli ekanini tushunadi. Bobur buvisini shahardagi eng chiroyli bog‘ga dafn etadi va bir kuni dushmanlaridan qutilganidan so‘ng buvisi oldiga kelib, qilgan ishlarini aytib berishni maqsad qiladi [Rutherford 2009, 231]. Yuqoridagi ikkala asarda ham Esondavlat begim shaxsiga doir epizod va motivlar uning vafoti bilan yakunlanadi, faqatgina “Shimoldan kelgan fotihlar” romani voqealari rivojida Xonzoda begimning buvisiga ko‘p jihatlari bilan o‘xshashligi ta’kidlanadi. Xonzoda begim Bobur mirzoga maslahat bermasa ham romanning mantiqiy davomi bo‘lgan keyingi asarda Humoyun mirzo yonida har doim davlat ishlarida maslahatchi vazifasini bajargan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV – XVI asrlar oralig‘idagi tarixiy jarayonlarni, saroy muhitini hamda undagi ayollarning mavqeyini qisman bo‘lsa-da, yoritib, ular haqida ma’lumot beruvchi muhim manba vazifasini bajaradi. Bobur boshqa tarixnavislardan farqli ravishda o‘z asariga saroy xonimlari, oila a’zolari haqidagi ma’lumotlarni ham kiritadi. Bu esa Bobur podshohning keng dunyoqarashga ega, ochiq fikrli kishi bo‘lganidan dalolat beradi. Chunki bu davr manbalarida ayollar haqida deyarli ma’lumotlar keltirilmagan, faqatgina ma’lum bir vaziyatlarda “falonchining onasi” ekanligi aytib o‘tilgan, xolos. Biroq Bobur mirzo asariga ochiq fikr bilan yondashadi va o‘zi ta’kidlaganidek, “har so‘zning rosti va har ishning haqiqiy voqeiy bayonini” tahrir etgan [Boburnoma 2023, 238]. Fikrimizning yorqin isboti Esondavlat begim haqida Bobur bildirgan fikrlarda namoyon bo‘ladi. U buvisining naqadar dono va oqila ayol bo‘lganini ta’kidlaydi. Boburning shonli hayot yo‘lidan ilhomlangan ikki ingliz yozuvchilari Flora Anni Stil va Aleks Rutserfordlar ham o‘z asarlarida Esondavlat begimning siyosiy va ma’naviy ahamiyatini unutmaydilar hamda asarlarida Esondavlat begim shaxsiyatining yangi qirralarini ochib beradilar. Uning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, qarashlari va maqsadlarini o‘quvchilarga ochiq yoritib beradilar. Xulosa qilib aytish mumkinki, “Jahongashta qirol” romani ham, “Shimoldan kelgan fotihlar” romani ham garchi ingliz tilida yaratilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyoti uchun beqiyos ahamiyatga egadir. Chunki ushbu asarlar dunyo yozuvchilar va kitobxonlarining Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi qarashlarini o‘zida mujassam etadi.

Adabiyotlar

Zahiriddin Muhammad Bobur. 2023. *Boburnoma.* V.Rahmonov & K.Mullaxo'jayeva tabdili. Toshkent: O'zbekiston.

Zahiriddin Muhammad Bobur. 1960. *Boburnoma.* Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Mirzayev. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

Zahiriddin Muhammad Bobur. 2008. *Boburnoma.* V.Rahmonov & K.Mullaxo'jayeva tabdili. Toshkent: O'zbekiston.

Rutherford, A. 2009. *Empire of the Moghul: raiders from the north.* New York: St. Martin's Press.

Steel, F.A. 1928. *King-errant.* Great Britain: Tonbridge Printers.

Адабиётшунослик луғати. 2013. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Тошкент: Akademnashr.

Qodirova, M. 2026. "Jahongashta qirol" va "Shimoldan kelgan fotihlar" romanlarida transmotivatsiya. *Foreign languages in Uzbekistan.* vol. 12, No 1 (66), 400 – 415. *https://doi.org/10.36078/1767726151*

From Historical Source to Artistic Interpretation: The Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels

Mohida Qodirova[1]

Abstract

This study aims at analyzing the literary interpretation of the character of Esan Davlat Begim in two historical novels written in English literature by Flora Annie Steel and Alex Rutherford, based on the work "Boburnoma" authored by Zahiriddin Muhammad Babur. In the course of the analysis, the passages depicting the figure of Esan Davlat Begim in "Boburnoma", "King-Errant" and "Raiders from the North" were examined in detail. In this context, "Boburnoma" functions as the hypotext (source text), while "King-Errant" and "Raiders from the North" serve as hypertexts, representing transformed and newly constructed narratives. The study reveals that the two aforementioned English authors devote significant attention to the character of Esan Davlat Begim, attempting to

[1] *Mohida Qodirova* – Phd candidate, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
E-mail: nazarovamohida@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-8172-9777
For citation: Qodirova, M. 2026. "From Historical Source to Artistic Interpretation: the Portrayal of Esondavlat Begim in English Historical Novels". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 95 – 106.

highlight her role in governance and political affairs. It is also established that, throughout their works, they portray her personality and physical appearance in a distinctive manner, combining historical facts with their own creative interpretation. This research contributes to the study of "Boburnoma" and the works created in English literature on its basis, and serves as a scholarly resource for further investigations into the phenomenon of textual transformation.

Key words: *"Baburnama", English historical novels, Esondavlat Begim, transformation, memoir.*

References

Zahiriddin Muhammad Bobur. 2023. *Boburnoma.* V.Rahmonov & K.Mullaxo'jayeva tabdili. Toshkent: O'zbekiston.

Zahiriddin Muhammad Bobur. 1960. *Boburnoma.* Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev, S.Mirzayev. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

Zahiriddin Muhammad Bobur. 2008. *Boburnoma.* V.Rahmonov & K.Mullaxo'jayeva tabdili. Toshkent: O'zbekiston.

Rutherford, A. 2009. *Empire of the Moghul: raiders from the north.* New York: St. Martin's Press.

Steel, F.A. 1928. *King-errant.* Great Britain: Tonbridge Printers.

Adabiyotshunoslik lug'ati. 2013. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralieva. Toshkent: Akademnashr.

Qodirova, M. 2026. "Jahongashta qirol" va "Shimoldan kelgan fotihlar" romanlarida transmotivatsiya. *Foreign languages in Uzbekistan.* vol. 12, No 1 (66), 400 – 415. *https://doi.org/10.36078/1767726151*